

O'TKIR HOSHIMOVNING " IKKI ESHIK ORASI " ASARIDA INSONNING
TAQDIRINING CHIGALLIKLARI

Normirzayeva Ozoda Ikrom Qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi
talabasi*

Annotatsiya: Normirzayeva Ozoda Ikrom qizining " O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi " asarida inson taqdirining chigalliklari " deb nomlangan maqolasida asardagi insonlar taqdirining chigalliklari va boshlariga tushgan kulfatlarning sababchisi urush ekanligi aytib o'tilgan .

Kalit so'zlar : *Urush , qora mehnat , sadoqat , xiyonat , aldovlar*

O'tkir Hoshimovning " Ikki eshik orasi " asari kitobxon uchun aziz kitoblardan biri bo'lib qolgan desam mubolag'a bo'lmaydi . Mening o'zim ham bu kitobni har safar o'qiganimda urush bo'layotgan paytdagi insonlar hayoti ko'z oldimga kelaveradi . Asarda sodda xalq hayoti va urush yillari qiyinchiliklari , frot azoblari va bundan tashqari urush tufayli ko'plab insonlarning hayoti butkul o'zgarib ketganini o'qib tushunishimiz mumkin . Ushbu asarning bizga tarbiyaviy jihati juda ko'p . Yuz marta maqtagandan bir marta bu hikoyani yoritib berganimiz yaxshi . " Ikki eshik orasi " asarining epigrafi " Rost bilan yolg'onning o'rtasi -to'rt enlik " nimaga bunday g'ayriiordiy epigraf tanlangan deb o'ylaysiz ? Shu savolga yozuvchining o'zi quyidagicha javob beradi : " Gap shundaki , ko'z bilan quloqning orasi -to'rt enlik ekan Eshitganingga emas , ko'rganingga ishon " .

Asar Qurilish -montaj brigadasining boshlig'I Muzaffar Shomurodov hikoyasi bilan boshlanadi . Asarda har bir qahramonning o'z hikoyasi bor . Muzaffar sevgilisi Munavvardan ayrilganidan keyin o'qishni ham tashlab ketgani dunyodan uzilib qolgani aytib o'tiladi . Asarning bosh qahramonlarining hayoti juda chigalliklarga to'la va boshiga og'ir sinovlar ko'p bora tushadi . Keling Robiya hikoyasidan boshlasak , Robiyaning onasi og'ir betob edi . Shundan so'ng u vafot etdi . U uyga ortiq yasholmagan Robiyaning otasi Robiyani olib Toshkentga keladi . Toshkentda Husan Dumanikiga yashay boshlaydilar . Husan Duma ko'ngli ochiq , yaxshi odam edi . Uning xotini ham yomonlikni bilmaydigan , ko'ngli toza soddagina ayol . Ularning Kimsan ismli o'gli bor . Robiyaning otasi qishloqda maktab ochdi . Ammo darsni programma bo'yicha o'tmaydi -deb tuhmat qilishib, uning otasi qamalib ketadi . Robiya Husan Dumaning uyiga ulg'ayadi , Husan duman "dada", uning xotinini "oyi" deb atab katta bo'ladi . Kimsan va Robiya bir biriga ko'ngil qo'yadi ,aynan shu vaqtda Kimsanning tog'asining , Shomurodning , to'yi bo'ladi . Shomurod o'z sevgan qizi bilan turmush quradi , Ammo to'satdan urush boshlanib , Kimsan va Shomurod urushga ketadi . Kimsan xat orqali onasiga Robiyada ko'ngli bor ekanligini aytadi , Onasi xursand bo'lib , ularni unashtirib qo'yadi , ammo Kimsan urushdan qaytib kelmaydi . Shomurod tog'asi bo'lsa urushdan yaralanib qaytib keladi . Uning xotini homilador edi .

Ular farzandli bo'lishadi , baxtga qarshi Shomurodning xotini unga xiyonat qiladi, buni Shomurod bilib qolgandan so'ng , ular Umar Zakunchi degan odam bilan qochib ketadi

Bundan Shomurodning rosa jahli chiqadi, aynan shu voqea tufayli u vaqtlar o'tsa ham qizishib ketadigan , har narsaga jahl qilib qoladigan odamga aylanib qolgan edi . O'g'liga Muzaffar deb ism qo'yishgan edi . Muzaffarni yolg'iz o'zi katta qilardi . Bir kuni Qora amma (Husan dumaning xotini) Kimsanni kuta- kuta charchagan Robiyani Shomurodga olib beradi . Robiya ham uni qizim deb aytadigan Shomurod tog'asiga turmushga chiqishga majbur bo'ladi . Muzaffarni Robiya va Shomurod katta qilishadi

Muzaffar Munavvar ismli qizga ko'ngil qo'yadi . Ammo bu haqida Munavvar onasiga , Muzaffar esa ota- onasiga aytmaydi , ularning munosabatlari juda chuqurlashib ketadi , Muzaffar onasiga sovchi bo'lib borishni aytadi , onasi juda sevinadi birozdand so'ng xursand ahvolga ketgan ayol tarvuzi qo'ltig'idan tushib , rangi bo'zdek oqarib qaytib keladi, Muzaffar onasining ahvolini ko'rib qo'rqib ketadi , Munavvar ham onasiga qaraganida umuman boshqa ayolni ko'radi .Munavvarning onasi ham Muzaffarning onasi ham ularning turmush qurishlariga qarshi bo'lishadi . Munavvar onasiga agar Muzaffarga turmushga chiqmasa , uydand ketishi haqida aytib qo'yadi , onasi shu gapni eshitib , haqiqatni aytib qo'yadi . Haqiqat shundan iborat ediki , Muzaffar va munavvar aka –singil , emakdosh bo'lib chiqadi shuning uchun ham ularning ota onasi turmush qurishlariga qarshi bo'lishadi . Munavvar shu so'zlarni eshitarkan , aynan mana shu so'zlarni Muzaffar ham onasidan eshitar edi . Ikkalasi ham qayg'uga botib qolishdi . Ikkalalari ham qilgan ishlari gunoh ekanligini o'ylab xafa bo'lishadi . Munavvar o'z joniga qasd qildi , ammo hamma uni zilziladan vafot etdi deb o'ylardi . hech kim bilmasdi . Bu kitobni o'qir ekanman , aslida voqealarning bu tarzda yakunlanishida Ra'noni ham aybdor qilishimiz noto'g'ri . Bularning barchasiga shavqatsiz , ayovsiz urush aybdor emasmikin . Menimcha shunday . Chunki urush bo'lmaganida edi, Shomurod urushga ketib Ra'no yolg'iz qolmas edi , ya'ni u ham Shomurodga xiyonat qilmas edi . Urush bo'lmaganida edi, Kimsan bilan Robiya turmush qurib baxtli hayot kechirgan bo'lar edilar ,nafaqat Kimsan bilan Robiya , balki butun xalq baxtli bo'lardi . Aynan mana shu urush deb necha necha ayollar suyukli yoridan , onalar jondan aziz farzandidan ajraldi . Ushbu asarda qoralangan narsa bu urushdir . Kimsanning urushning fojiiyaviy voqealari aks ettirilgan hikoyasini tanamda titroq bilan o'qidim . Ya'ni unda bir to'da askarlar fashist qo'liga asr bo'ladi . Ularni Ugri daryosiga olib borishadi qor yog'gan hamma joy muzlik bilan qoplangan . Fashistlar muzni teshib odamlarni yalong'och qilib birin –ketin suvga tiqa boshladilar ,lekin suvga tashlanganlar ichida bir ayol eng ko'p suvga chidab turoidi . Shunda Fashistlar:" bir biriga kulib ukolning dozasi kuchli ekan,- deyishdi , ammo u yerga guvoh bo'lib turgan Kimsan u ayolni aslida ukolning dozasi uchun emas , balki go'dagidan umid uzolmayotganini aytib o'tadi . Aynan mana shu ma'nodagi satrlarni har bir kitobxon ko'ziga yosh bilan o'qiydi. Ushbu asar kitobxon uchun qayta –qayta o'qiladigan asrlar ro'yxatidan joy oldi . Asarni biz zilzila ko'rsartilgandan ham nechanchi yil yozilganini bilib olishimiz mumkin . "Ikki eshik orasi " asarining bizga tarbiyaviy jihatlari ko'p .

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak , biz hozirgi yashayotgan tinch totuv hayotimiz uchun doim shukr qilib , bizga berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz kerak . Bu asarning o'ziga chorlaydigan tarafi shundaki , unda ezgulik sifatlari ko'p . So'zlarimizning isbotini Husan Duma , Orif Oqsoqol , Komil tabib misolida ko'rishimiz mumkin . Husan Duma , Orif Oqsoqol , Komil tabib , Insonparvarligi , og'ir kunlarda boshqalarga suyanch bo'lganligi , doim xalq tashvishi bilan yurishi , o'ziga og'ir bo'lsa ham boshqalarning ko'nglini ko'tarishi bilan kitobxon xotirasiga muhrlanadi .Adib qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari – mardligi , matonati , vatanparvarligi va sabr – bardoshi haqida so'zlaydi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1) O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi " . Roman . Toshkent . Yangi asr avlodi , 2016. -754 bet
- 2) Uz.m. Wikipedia. Org